

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA REPRODUKTIV MADANIYATINI TARBIYALASH VA TAYYORLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10071801>

**Yaxshimbekova Sayyora Kamalovna**

*Alfraganus universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Ta'lrim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning ahloqiy va ma'naviy takomili ko'p jihatdan shaxsning ma'naviy tarbiyasiga bog'liq. Ushbu maqola bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida reproduktiv madaniyatini tarbiyalash va tayyorlashga bag'ishlanadi.

### **Kalit so'zlar**

*jismoniy tarbiya, reproduktiv madaniyat, davlat siyosati, intellektual meros, umumbashariy qadriyat, madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiya.*

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek; "Yoshlar tarbiyasi masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalasıdir. XXI asrda yashab, samarali mehnat qilish, O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib takomillashtirish bizning bosh vazifamizdir" [1].

Darhaqiqat, so'nggi yillarda keskin o'zgargan hayot sharoitlari va ta'lrim tizimi, uning maqsadi, mazmuni, turlari o'rtaсидagi o'zgarishlar yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga yangicha qarash, uni bugungi kun nuqtai nazaridan o'rghanish, baholash va unda xalqimizning boy madaniy merosidan maqsadli foydalanishni talab etmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish esa:

ta'lrim-tarbiya ishlari, shakllari usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos holda rivojlantirish;

ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash;

yoshlarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini qaror toptirish;

yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy kamolotida mahalla, oila va nodavlat tashkilotlar hamkorligi tizimini yaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bizga ma'lumki, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yish va unga rioya etish, sog'lom oilani takomillashtirish, farzand ko'rish va uni tarbiyalash shaxs ma'naviy madaniyatining bir ko'rinishi hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayram tabrigida "Mamlakatimizda onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash maqsadida tibbiyot sohasini, xususan, shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish, dori-darmon ta'minotini yaxshilash bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda. Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun joriy yilda budjet mablag'lari hisobidan qariyb 1 trillion so'm mablag' ajratilib, bu borada yangi qadamlar qo'yiladi" deya mazkur sohadagi ishlarning dolzarbliги xususida to'xtalib o'tdi [2].

Shu bidan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan izchil islohatlar, ko'rيلayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan xotin-qizlar, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, yoshlarda tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va unga rioya qilish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha qator muammolar ham uchramoqda.

Jumladan:

onalar va bolalar o'limi holatlari;

kamqonlik va boshqa turli xastaliklar;

ayrim oilalardagi homilador ayollarga bo'lgan munosabatning sustligi va parvarishning yetarli darajada emasligi;

yosh oilalardagi ayrim muammolar natijasida kelib chiqayotgan tushunmovchiliklar;

er-xotin, qaynona-kelin, ota-onalar va farzandlar va boshqa oila a'zolari munosabatlaridagi o'zaro kelishmovchiliklar;

ayrim oilalardagi erkaklarning mas'uliyatsizligi, salomatlik va sog'lom-turmush tarzi masalalariga befarqligi;

erta nikoh va erta ona bo'lish holatlari;

nogiron farzndlarning tug'ilishlari va h.k. [3].

Pedagogik muammo sifatida tadqiq qilinayotgan reproduktiv madaniyat ham shaxs ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanib, bu muammoni falsafa, tibbiyot, fiziologiya, psixologiya, pedagogika fanlari tadqiq etadi.

Dastlab madaniyat tushunchasiga aniqlik kiritsak. Madaniyat ko'p qirrali, ijtimoiy ong mahsuli sifatida shakllanadigan jarayondir.

Ilmiy lug'atlarda, "madaniyat" so'zi arabcha so'zdan olingan, "shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan shaxs" sifatida izohlanadi [4].

Madaniyat tarixiy xarakterga ega bo'lib, kishilarning moddiy va ma'naviy hayotga ehtiyojining oshishi natijasida paydo bo'lgan va ularning ma'naviy hattiharakati, xulq-atvori normalarini o'z mazmunida ifodalangan, shaxs va jamiyatning (ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy) rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ongli faoliyat yig'indisidir [4].

Tadqiqotlarda madaniyat tushunchasi jamiyatni ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy hayotda, xalqning ma'lum davrlarda qo'lga kiritgan yutuqlari majmuasi, ta'lim-tarbiya, o'qimishlilik, ziyolilik va ma'rifatparvarlik darajasi ekanligi ko'rsatilgan.

Demak, olimlarning madaniyat atamasiga bergan ta'riflariga asoslanib, uni quyidagicha izohlash mumkin bo'ladi: madaniyat – insonning aql-zakovati, tili, tafakkuri, mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy va ruhiy holatining butun hayot tarziga singib ketib, unda o'z ifodasini topgan ijobiy-ijtimoiy faoliyat majmuasidir.

Madaniyatining tarkibiy qismlari haqida faylasuf olimlar turlicha fikrda bo'lib, uni siyosiy, moddiy, ma'naviy (M.T.Iovchuk, L.N.Kogan) jismoniy, moddiy va ma'naviy (K.B.Bo'ronov), moddiy va ma'naviy-ahloqiy (I.M.Mo'minov, M.M.Xayrullayev, S.SH.Shermuhamedov, M.Inomova, O.Musurmonova) sifatlar yig'indisi tarzida talqin etadilar.

Bizning nazarimizda, madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy qadriyatlar) jihatdan ta'sir etadi. Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro ta'siri va aloqasi natijasida aqlan yetuk, ahloqan barkamol, jismonan sog'lom, dunyoqarashi keng shaxs tarkib topadi.

Darhaqiqat, jamiyatning moddiy madaniyati uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqarida yaratilmaydi. Shaxs va jamiyat hayoti, rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishga qay darajada bog'liq bo'lsa, ma'naviy madaniyatga ham shu darajada bog'liqdir.

Shaxsning tashqi olam voqeа-hodisa va jarayonlarini aql, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonda ma'naviy madaniyat qaror topadi. Yuksak ma'naviyatli insonda esa oilaparvar, vatanparvar va yetuk mutaxassisga xos xususiyatlar mujassamlashadi.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviy madaniyatini takomillashtirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi.

Shuningdek, inson xarakterini, tabiatni va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, shu munosabatlar to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar oila sharoitida, otaonaning ibrat-namunasidan shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila tarbiyasi shaxs ma'naviyatini shakllanishidagi asosiy vosita ekan, bu o'rinda bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Shu ma'noda yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida "Sog'lom turmush tarzi - sog'lom oila, sog'lom oila bu sog'lom farzand, baxtli kelajakdir" tasavvurini takomillashtirish, bo'lajak ota-onalar ya'ni, bo'lajak o'qituvchilarning reproduktiv madaniyatini takomillashtirish bu yo'nalishdagi islohotlarning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Jahonning 179 davlati hukumatlari tomonidan qabul qilingan Qohira Xalqaro anjumani (ARXA)ning Harakatlar dasturiga hayot sifati, rivojlanish, salomatlik, ta'lim, atrof-muhit, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik kabi masalalar bilan bog'liq bir qator muhim maqsad va vazifalar kiritilgan [5].

Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira Xalqaro anjumani (ARXA) hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularda quyidagi muammo va masalalar o'z aksini topgan:

- onalikni himoya qilish-onalar o'limini qisqartirish;
- OIV-infeksiyasi hamda JAYBYUK ga qarshi kurash;
- bolalar o'limini qisqartirish;
- boshlang'ich ta'limning hammabopligrini ta'minlash;
- erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka erishish;
- kambag'allikni qisqartirish.

Shu tariqa, ARXA maqsadlariga erishish orqali Ming yillik rivojlanish maqsadlariga ham erishiladi [5].

Ming yillik Deklaratsiyasida (MRM) ifodalangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish orqali yuz millionlab odamlar hayotini o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bashariyat ko'plab kasalliklar va bevaqt o'lim, qashshoqlik, to'yib ovqat yemaslik kabi muammolardan xalos bo'ladi. Yer shari aholisining qashshoq qatlamlari pirovardida toza suvdan, tegishli sanitariya vositalari shuningdek, boshlang'ich ta'limdan bahramand bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston "Mingyillik Deklaratsiyasi" ni imzolagan mamlakat sifatida MRMga erishish bo'yicha o'z majburiyatlarini izchillik bilan bajarmoqda. Mamlakatimiz hukumati bu maqsadlarning milliy rivojlanishda muhimligi hamda dolzarbligini e'tirof etgan holda fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda milliy MRMni ishlab chiqish va amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratishga kirishdi.

Natijada BMTning MRMga bag'ishlangan yig'ilishida belgilangan vazifalarga monand quyidagi sakkizta maqsadni qamrab olgan milliy MRM ishlab chiqildi:

1-maqsad-Kam ta'minlanganlik va qoniqarsiz oziqlanishni qisqartirish;

2-maqsad-Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'lim sifatini oshirish;

3-maqsad-Ayollar va erkaklar tengligini rag'batlantirish va ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

4-maqsad-Bolalar o'limini qisqartirish;

5-maqsad-Onalar salomatligini yaxshilash;

6-maqsad-OIV/OITS, sil kasalligi va bezgakka qarshi kurash;

7-maqsad-Ekologik barqarorlikni ta'minlash;

8-maqsad-O'zbekistonning global hamkorlikda rivojlanish masalalari [5].

Mazkur sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2019 yilni "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb belgilanishi, yoshlarning manfaatlari va xuquqlarini himoya qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturining qabul qilinishi ham fikrimiz isbotidir.

Sog'lom avlodni takomillashtirish jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshriladi. Buning uchun esa, jamiyatning har bir a'zosi sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishi, salomatlikni madaniyatllilikning bir ko'rinishi sifatida qabul qilishi lozim. Yoshlar hayotida, yurish-turishida ham mana shunday yangicha tafakkurning shakllantirilishi bu boradagi barcha muammolarga yechim bo'lib xizmat qiladi.

Keltirilgan ushbu empirik xulosalar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish davlatimizning sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi tub islohotlarining muhim yo'naliшlaridan biri ekanligini tasdiqlab, bu borada quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

yoshlarda reproduktiv madaniyatni, sog'lom turmush tarzini takomillashtirish muammoсини ilmiy asosda tadqiq qilish;

oliy ta'lim muassasadagi o'quv-tarbiya jarayonida sog'liq madaniyati, reproduktiv madaniyat masalalarining kengroq yoritilishiga e'tibor qaratib, zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga sog'lom turmush tarzining mohiyatini anglab, ularda bu boradagi faoliyatli yondashuvni takomillashtirishga yordam beruvchi metodik bankni yaratish;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini oila va nikoh asoslariga o'rgatish, oilaviy hayotga tayyorlash, jinsiy va gigiyenik

tarbiyalash ishlarini maxsus ishlab chiqilgan dasturlar asosida amalga oshirish kabilardir.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olrijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Kenjaboyeva N.M. Talaba yoshlarning reproduktiv madaniyatini shakllantirish. "Ta'lif muammolari" jurnali. -T., 2009. -№4. -51-52 b.
4. Mustaqillik: izohli, ilmiy-ommabop lug'at. mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, Abdurazzoqova va boshq; A.Jalilov va Q.Xonnazarovning umumiy tahririda. -T.: Sharq, 2000. - 320 b.
5. "Sog'lom oila-sog'lom avlod-sog'lom kelajak" Mahalla xotin qizlar komissiyalarining raislari va fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifiy va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilari uchun amaliy qo'llanma. -T.: 2011. – 60 b.